

SO'FIYLIK G'OYALARINING YOSHLAR MA'NAViy-AXLOQIY TARBIYASIDAGI O'RNI

Tuychiyev Zafar Nardankulovich

Farg'ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22668821>

Qabul qilindi: 1-sentabr 2026-yil • Ma'qullandi: 8-sentabr 2026-yil • Nashr qilindi: 9-sentabr 2026-yil

Annotatsiya

Mazkur maqolada so'fiylik g'oyalarining yoshlar ma'naviy-axloqiy tarbiyasidagi o'rni va ahamiyati, xususan, nafs tarbiyasi, ruhiy poklik, sabr, qanoat, mehr-muruvvat va ilohiy muhabbat kabi qadriyatlarning shaxs kamolotidagi roli yoritilgan. So'fiylik ta'limotining ma'naviy komillikka erishish, axloqiy fazilatlarni shakllantirish hamda yoshlarni turli salbiy ta'sirlardan himoya qilishdagi imkoniyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, so'fiylikning ma'naviy-axloqiy tamoyillaridan ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish yoshlarning komil inson sifatida shakllanishiga, jamiyatda insonparvarlik, ezgulik va ijtimoiy mas'uliyat tuyg'ularining rivojlanishiga xizmat qilishi asoslangan.

Kalit so'zlar:

so'fiylik g'oyalari, ma'naviy-axloqiy tarbiya, ma'naviy kamolot, axloq, nafs tarbiyasi, ruhiy poklik, ilohiy muhabbat, sabr, qanoat, mehr-muruvvat, insonparvarlik, ma'naviy qadriyatlar, komil inson.

Kirish (Introduction).

Sufiylik g'oyalari yoshlar ma'naviy-axloqiy tarbiyasida muhim o'rin tutadi, chunki u nafaqat din, balki insonning ichki dunyosini boyitish va axloqiy tarbiyani shakllantirishga qaratilgan tizimdir. Sufiylikning asosiy maqsadi – insonni Allohga yaqinlashtirish, nafsni tarbiyalash, ichki poklikka erishish va yuqori axloqiy fazilatlarga bilan yashashdir. Sufiylikda insonning ruhiy dunyosini tarbiyalash va uni ma'naviy yuksalishga yetaklash ustuvor vazifa hisoblanadi. Bu yoshlar uchun o'z nafslarini nazorat qilish, ma'naviy dunyosini rivojlantirish va hayotda ma'naviy qadriyatlarga tayanishni o'rgatadi.

- **Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).** Sufiylik odob-axloq qoidalariga qat'iy amal qilishni targ'ib qiladi. Yoshlarni poklik, to'g'rilik, adolat, mehr-shafqat, birodarlik va sadoqat kabi fazilatlarga o'rgatadi. Sufiylik sabr va qanoat kabi sifatning ahamiyatini ta'kidlaydi. Bu yoshlarga hayotda yuzaga keladigan qiyinchiliklarni sabr bilan yengish va yolg'on-yovuz istaklardan o'zlarini tiyishni o'rgatadi.

Sufiylikning asosiy g'oyalaridan biri nafsni tarbiyalash va Allohga yaqin bo'lishdir. Yoshlar nafs bilan kurashishni, turli vasvasalardan saqlanishni o'rganishlari va o'z ruhiyatini tarbiyalashlari orqali chuqur ma'naviy tushunchalarga ega bo'ladilar. Sufiylikning yana bir muhim g'oyasi – hamma insonlarga birdek mehr-muruvvat ko'rsatish va hurmat qilishdir. Bu yoshlarga ijtimoiy hayotda insoniy munosabatlarni mustahkamlash va jamiyatdagi barqarorlikni saqlashda muhim ahamiyatga ega. Sufiylik g'oyalarining tarbiya jarayonidagi ahamiyati shundaki, yoshlar o'ziga ma'naviy tayanch va yo'l ko'rsatuvchi qadriyatlarni sufiylik an'analaridan topadilar. Bu qadriyatlar nafaqat diniy, balki insonning kundalik hayotida ham amalga oshiriladigan odob-axloq qoidalar bilan bog'liqdir.

- **Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** Afsonada keltirilishicha, uning Makkaga qilgan safari o'n to'rt yilga cho'ziladi, negaki "har qadam qo'yganda ikki rakatdan

namoz o'qib boradi". U o'zicha o'ylaydi: "Boshqalar bu sahroda piyoda yurib boradilar, men esa ko'zim bilan borayin" [1]. Bu musulmon odamning amaliga ishoradirki, har bir rakat namoz o'qiganda peshonasini tuproqqa ishqaydi. Shunday qilib, "Makkaga yetgan vaqtida, xudoning uyini joyida ko'rmadi. Dedi: Oh! Qanday hodisa bu? Mening ko'zimga biror narsa bo'lganmi? Sirli ovoz eshitilib, unga dedi: Sening ko'zingga hech narsa bo'lgan yo'q. Ammo Ka'ba bir zaifaning istiqboliga ketgandirki, uning yuzi shu yerdadir. Ibrohimning hushi uchib, g'ayratga to'ldi va dedi: kim bo'ldiykin u? Shu asnoda hassasiga tayanib kelayotgan Robiyani ko'rdi. Ka'ba yana o'z joyiga bordi. Ibrohim dedi: Ey Robiya, bu qanday shov-shuvki, jahonra larza solding? Robiya javob berdi: sen jahonra jar solib, xudoning uyiga o'n to'rt yilda yetib kelding" [2].

Robiyaning javobi xususidagi eng yaxshi sharh ilohiy inoyatga taalluqli boshqa afsonada keltiriladiki, unga binoan o'zining oldiga peshvoz chiqayotgan Ka'bani ko'rgan Robiya baqiradi: "Menga xudoning makoni (bayt-ur rabb) kerak, Ka'bani nima qilaman" [3].

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Ibrohimning ilohiy muhabbat haqidagi oliy talqinining ba'zi qismlari Mahosibiyning "Kitobul muhabbata" ("Muhabbat kitobi") asarida keltiriladi: "Agar xudoning do'sti va mahbubi bo'lishni xohlasang, ikki dunyodan ham forig' bo'lg'in va yuzingni xudoga burgil. Ana shunda xudo ham sen tomon boqadi va seni o'z karami dunyosiga g'arq qiladi. Chunki, eshitishimcha, xudovand Yahyo, o'zimcha shunga qaror qildimki, qachonki, bandalarimdan biri meni shunday sevsaki, bu haqda uning dili guvohlik bersa, o'sha asnoda men uning qulog'i bo'lamanki, uning vositasida u eshitadi, ko'zi bo'lamanki, uning vositasida u ko'radi, uning tiliga aylanamanki, uning vositasida u gapiradi, uning diliga aylanamanki, u hamma narsani topadi. Izzat va ulug'vorligimni hurmati qasamki, uni shunchalik martabalariga erishtiramanki, payg'ambarlar rashk qiladilar" [4].

Sufiylik g'oyalari yoshlar ma'naviy-axloqiy tarbiyasida muhim o'rin tutadi, chunki sufizm ma'naviy komillikka intilishni va shaxsiy tarbiyaning yuqori darajasiga yetishishni targ'ib qiladi. Ijtimoiy-falsafiy nuqtayi nazardan sufizmdagi asketizm va o'z nafsini yengish yo'lidagi harakatlar yoshlar uchun axloqiy va ruhiy kamolotga erishish uchun namuna sifatida qaralishi mumkin. Etika va axloq sufizmda asosiy o'rin tutadi. Sufiylikning asosiy maqsadi Allohga yaqinlashish, o'z nafsini tarbiyalash va dunyoviy narsalardan voz kechish orqali ma'naviy mukammallikka erishishdir. Bu g'oyalar yoshlar ma'naviy tarbiyasining muhim asoslaridan biri bo'lishi mumkin. Yoshlar nafsni yengish, hirslardan voz kechish va to'g'ri yo'ldagi harakatlar orqali o'zlarini tarbiyalashni o'rganadilar, bu ularning shaxsiy rivojlanishi va ma'naviy-axloqiy kamolotga intilishiga yordam beradi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Sufiylikning ruhiy tarbiyasi yoshlarga asketizm, ichki tozalanish, vahiylarga erishish yo'lidagi zikr amaliyotlari orqali o'zining ma'naviy holatini tarbiyalashda yordam beradi. Sufiylar shaxsiy ma'naviy kamolotni ko'zlab, insonlar orasidagi munosabatlarda samimiylik, toza qalb va yaxshilikka intilish kabi axloqiy qadriyatlarni shakllantirishga harakat qiladilar. Bu yoshlarni jamiyatdagi ijtimoiy-axloqiy normalarga amal qilishga va jamoat manfaatlariga hissa qo'shishga tarbiyalaydi. Bundan tashqari, sufiylik axloqiy asoslariga suyang'an holda, yoshlar yolg'on fikrlar va destruktiv g'oyalar ta'siriga tushmaslikka tayyorlanadi. Sufizm Allohga sadoqat va uning yo'lidagi haqiqiy harakatlarni targ'ib qilish orqali axloqiy barqarorlikka erishishda muhim o'rin tutadi. Yakunida, sufiylik g'oyalari yoshlar ma'naviy-axloqiy tarbiyasi uchun muhim ma'naviy va ruhiy qo'llanmalarni ta'minlaydi. Bu g'oyalar yoshlarni nafaqat o'z shaxsini tarbiyalashga, balki jamiyatga ham ma'naviy va axloqiy jihatdan salbiy ta'sirlardan himoyalaniib, kamolotga yetib borishga yordam beradi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Badaviy. *Shahidat-ul ishq ilohiy*. – B. 145.
2. Badaviy. *Shahidat-ul ishq ilohiy*. – B. 145.
3. Qushayriy. *Ar-risolatul Qushayriya*. – B. 143. (arab tilida)

РОЛЬ ИДЕЙ СУФИЗМА В ДУХОВНО-НРАВСТВЕННОМ ВОСПИТАНИИ МОЛОДЁЖИ

Аннотация

В данной статье освещаются роль и значение идей суфизма в духовно-нравственном воспитании молодёжи, в частности роль таких ценностей, как воспитание нафса, духовная чистота, терпение, довольство, милосердие и божественная любовь в духовном совершенствовании личности. Анализируются возможности суфийского учения в достижении духовного совершенства, формировании нравственных качеств, а также защите молодёжи от различных негативных воздействий. Обосновывается, что использование духовно-нравственных принципов суфизма в образовательном и воспитательном процессе способствует формированию молодёжи как совершенной личности, развитию в обществе чувства гуманизма, добра и социальной ответственности.

Ключевые слова:

суфийские идеи, духовно-нравственное воспитание, духовное совершенствование, нравственность, воспитание нафса, духовная чистота, божественная любовь, терпение, довольство, милосердие, гуманизм, духовные ценности, совершенный человек.

THE ROLE OF SUFI IDEAS IN THE SPIRITUAL AND MORAL EDUCATION OF YOUTH

Abstract

This article examines the role and significance of Sufi ideas in the spiritual and moral education of young people, particularly the role of such values as the cultivation of the nafs, spiritual purity, patience, contentment, compassion, and divine love in the spiritual development of the individual. It analyzes the potential of Sufi teachings to achieve spiritual perfection, develop moral qualities, and protect young people from various negative influences. The study substantiates that the use of the spiritual and moral principles of Sufism in the educational and upbringing process contributes to the formation of young people as morally mature individuals and promotes the development of humanism, goodness, and a sense of social responsibility in society.

Key words:

sufi ideas, spiritual and moral education, spiritual perfection, morality, purification of the nafs, spiritual purity, divine love, patience, contentment, compassion, humanism, spiritual values, the perfect human.